

BO'RIYEV Jaloliddin Aliqulovich

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Arab tili va adabiyoti al-Azhar

kafedrası dotsenti v.b. PhD

E-mail: jburiyev1977@mail.ru

TILSHUNOSLIKDA “TIL MADANIYATI” VA “NUTQ MADANIYATI” TERMINLARINING TAVSIFI VA TALQINI

ОПИСАНИЕ И ТОЛКОВАНИЕ ТЕРМИНОВ «ЯЗЫКОВАЯ КУЛЬТУРА» И «РЕЧЕВАЯ КУЛЬТУРА» В ЛИНГВИСТИКЕ

DESCRIPTION AND INTERPRETATION OF THE TERMS “LANGUAGE CULTURE” AND “SPEECH CULTURE” IN LINGUISTICS

Annotatsiya: O'zbek nutq madaniyatining tarixiy ildizlarini, uning shakllanishiga doir jihatlarni o'rganish qadimdan shakllanib kelgan o'zbek tili sohiblarining nutqi va muloqotining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi globallashuv davrida nutq madaniyati va odobini tarixiy asarlar tili asosida o'rganish ma'lum nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Kalit so'zlar: til madaniyati, nutq madaniyati, ma'naviy boylik, тюркский ёдгорлик, tilshunoslik, yozma va og'zaki nutq.

Аннотация: Исследование исторических истоков и особенностей узбекской речевой культуры имеет важное значение для понимания национального коммуникативного этикета. В эпоху глобализации обращение к языку исторических произведений становится особенно актуальным, поскольку позволяет выявить уникальные черты общения народа, складывавшиеся веками, и определить их роль в современной языковой практике.

Ключевые слова: языковая культура, речевая культура, духовное богатство, тюркское наследие, языкознание, письменная и устная речь.

Abstract: The study of the historical roots of the Uzbek speech culture and aspects of its formation

serves to identify the specific features of speech and communication of Uzbek speakers, which have been formed since ancient times. From this point of view, in the modern era of globalization, the study of the culture of speech and etiquette in the language of historical works has a certain theoretical and practical significance. This determines the relevance of this topic.

Keywords: language culture, speech culture, spiritual wealth, Turkic heritage, linguistics, written and oral speech.

KIRISH

Jahon tilshunosligi o'zining necha ming yillik tarixiga ega bo'lib, lisoniy tizim dunyo olimlari tomonidan inson faoliyatining o'ziga xos ko'rinishi sifatida alohida ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etib kelinmoqda. Muayyan tilning uslubiy va estetik jihatlari, mahoratli adiblarning idiolekti masalasi mazkur soha tadqiqotchilarining e'tiborida bo'lib keldi. Bunday ilmiy tadqiqotlar orasida nutq madaniyati va odobi muammosi ham muhim o'rin egallaydi.

Dunyo tilshunosligi milliy til va adabiy tilning o'ziga xos hodisalarini teran tadqiq qilishga o'zining keyingi davr rivojida alohida e'tibor qaratmoqda. Jamiyatdagi ijtimoiy taraqqiyot, barcha fanlarda bo'lgani kabi, tilshunoslik oldiga ham yangi talablarni qo'ydi. Global masalalar markazida milliy tillar va ularning individualligi hodisasi asosiy o'rinni egallaydi. Qadimgi ajdodlarimizdan qolgan yodgorliklar – toshbitiklardagi matnlar, yozma obidalar, lahja va shevalar; xalq og'zaki ijodiga mansub asarlar – maqollar, matallar, latifalar, ertaklar, dostonlar; turli shakllarda saqlanib qolgan mifologik asarlar; “Ibratli hikoyalar”, “Hikmatlar” nomi bilan bizgacha yetib kelgan yozma asarlar tili madaniy meros sifatida milliy mentalitetimizni bor bo'yi bilan ko'rsatib turganligi bois ushbu sohaga e'tibor kuchayib bormoqda. Nutq madaniyati va odobini, adabiy til va uning meyorlarini chuqur va har tomonlama ilmiy tadqiq qilish, ularning ochilmagan qirralarini o'rganish, shu asosda dunyoning lisoniy manzarasida milliy mentalitetning o'ziga xosligini ko'rsatib beruvchi zamonaviy tadqiqotlarni yaratish bugungi o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho

ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o'zbek tilining boy latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin. Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dardu armonlari, zafarlari va g'alabalari bilan chambarchas bog'liqdir" [15:1].

ASOSIY QISM

Tilshunoslikda XX asrning 20-yillaridan boshlab til madaniyati va nutq madaniyati terminlari faol qo'llanila boshlandi. Nutq madaniyati sohasida bu ikki terminning bir-biridan farqlanishiga mashhur shveysariyalik olim F.de Sossyurning til va nutq dixotomiyasi haqidagi qarashlari turtki bergan deyish mumkin.

Ma'lumki, tilshunoslikda til madaniyati termini turlicha talqin etiladi. Ammo asosiy hollarda bu termin til tizimining madaniylik darajasi, ya'ni til birliklarining meyorga solinganligi, tartibga tushirilganligi, grammatik qonun-qoidalarning mukammal tarzda ishlab chiqilganligi holatiga nisbatan ishlatilmoqda.

Tilshunoslikda til madaniyati terminiga turlicha tavsif berilganligi kuzatiladi. Jumladan, T.Bushuy va Sh.Safarov "Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi" kitobida til madaniyati tushunchasiga ta'rif berishar ekan, "til madaniyati, avvalo, ilmiy xulosalar va ijtimoiy amaliyot natijalari asosida o'rnatilgan, lisoniy fikrlashning aniqligini ta'minlaydigan til normalari, uning lug'at boyligi, frazeologik zaxirasi" ekanligini bayon qilishdi [4:55]. Ular "til madaniyati hodisasini uning taraqqiyoti nuqtai nazaridan o'rganishda quyidagi tadqiq yo'nalishlariga murojaat qilish lozim"ligini ko'rsatishdi:

"1) orfografiya (zamonaviy tizimni arxaik xususiyatlardan tozalash maqsadida orfografiyani ilmiy asoslarda isloh qilish borasidagi tadqiqotlar);

2) nutqning tovush (ohang) tomonini o'rganishga oid tadqiqotlar (bu tadqiqotlar faqat orfoepiyagagina doir emas, balki talaffuzning muloqotni amalga oshirishdagi vazifasini ham qamrab oladi);

3) morfologiya. Til madaniyati muammosi grammatikaga ham daxldordir, biroq grammatik

tizimda til madaniyati boshqacha yo'nalish oladi. Zero, til madaniyati nazariyasi mustaqil ravishda morfologik norma yaratishga qodir emas. Norma til tizimining o'zida vujudga keladi, til madaniyatining unga ta'siri bilvositadir;

4) sintaksis. Bu sohani til madaniyati doirasida o'rganishda og'zaki va yozma nutq sintaksisi o'rtasidagi farqlarga alohida e'tibor berish talab qilinadi;

5) til madaniyatini stilistik farqlar nuqtai nazaridan o'rganish;

6) til madaniyatini semantik nuqtai nazardan o'rganish lug'at tarkibini meyorlashtirish va atamalar tizimini taraqqiy ettirish imkoniyatlarini aniqlash bilan bog'liq" [4:56].

E.Begmatov ham til madaniyati terminiga tavsif bergan. Uning fikricha, "Til madaniyati tushunchasi nutq madaniyati sohasida til sistemasining o'zini, masalan, o'zbek adabiy tilining vosita va imkoniyatlarini, "madaniylashtirishni" ko'zda tutadi. Demak, til madaniyati termini bilan ataluvchi tushuncha til sistemasining madaniylik darajasini, ya'ni uning qanchalik ishlanganligi, normallanganligini ko'rsatadi" [3:58].

Anglashiladiki, til madaniyati tushunchasi muayyan tilning fonetik-fonologik, leksik, morfologik, sintaktik sath birliklari meyorlashtirilganligi, grammatik qoidalarning ishlab chiqilganligi; orfoepik, orfografik, punktuatsion meyorlarning tartibga solinganligi, shuningdek, til birliklarining semantik, stilistik, funksional aspektlariga aloqador jihatlarning ham ishlanganligini qamrab oladi.

Ba'zi ishlarda til madaniyati terminining "til vositalaridan o'rinli foydalanish"ga nisbatan qo'llanganligi kuzatiladi. Jumladan, L.K.Turabayeva boshchiligidagi yozilgan maqolada "til madaniyati kommunikativ aloqa jarayonida nutq sharoiti va muloqot muhitidan kelib chiqqan holda til vositalarining o'rinli foydalanishi" sifatida tavsiflangan [14:26].

Mashhur tilshunos T.V.Jerebilo til madaniyati terminiga izoh berar ekan, bu terminning "nutq madaniyati" tushunchasini ham anglatishini qayd etgan. U terminning quyidagi ikki ma'nosini ko'rsatgan: "1. Yozma ёдгорликлардаги namunali matnlar xususiyatlari hamda til tizimining ifodalilik va mazmuniy imkoniyatlari. 2. Aynan nutq madaniyati"[6:169].

Ko'rinadiki, ushbu izohning ikkinchi ma'nosida til madaniyati va nutq madaniyati

terminlari aynan bir tushunchani anglatishi e'tirof etilgan.

Xuddi shunday, rus tilida nashrdan chiqqan sotsiolingvistik terminlar lug'ati, sotsiolingvistika terminlarining lug'at-ma'lumotnomasida ham til madaniyati va nutq madaniyati terminlari bir-biridan farqlanmagan. Ushbu lug'atda T.V.Jerebilo tomonidan til madaniyati terminiga berilgan yuqoridagi ta'rif qisman to'ldirishlar bilan berilgan: 1. Yozma yodgorliklardagi namunali matnlar xususiyatlari hamda til tizimining ifodalilik va mazmuniy imkoniyatlari. Til madaniyati bu ma'nosida og'zaki va yozma muloqot vaziyatida til xususiyatlari va imkoniyatlarining voqelanishi sifatida tushuniluvchi nutq madaniyatiga qarama-qarshi qo'yiladi. 2. Aynan nutq madaniyati.

Ushbu tavsifda ham go'yoki til madaniyati va nutq madaniyati terminlari farqlangandek tuyuladi. Ammo terminning ikkinchi ma'nosi izohida ushbu farq kuzatilmaydi.

Tilshunoslikda til madaniyati tushunchasi adabiy tilning muayyan davrdagi madaniy til sifatidagi kamoloti darajasini ifodalashda ham qo'llangan. Bu jihatdan til madaniyati tushunchasi adabiy tilning madaniylik darajasi, ya'ni mukammal holatda meyorlashtirilgan holatini o'zida namoyon etadi.

Anglashiladiki, tilshunoslikda til madaniyati termini keng va tor ma'nolarda qo'llanib kelinmoqda.

"Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari" kitobi mualliflari tilshunoslikda nutq madaniyati tushunchasining ham tor va keng ma'noda qo'llanib kelinayotganligini qayd etishadi. Ularning fikricha, "nutq madaniyati, agar masalaga lisoniy nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, bu eng avvalo, nutqning to'g'riligi demakdir. Ikkinchidan esa, u uslubiy jihatdan silliq bo'lishi kerak, ya'ni yaxshi nutq noaniqlikka, uzundan-uzoq jumalarga qarshi bo'lishi, qisqalik, aniqlik va soddalik uning o'lchovi bo'lishi lozim. Keng ma'noda esa nutq madaniyati nutqiy ta'sirchanlikni, ijodiy yorqinlikni, o'tkirlik va ifodalilikni bildiradi" [16:9].

Nutq madaniyati termini ham qator lug'atlarda izohlangan. Jumladan, O.S.Axmanovanning "Slovar lingvisteshteskix terminov" lug'atida til madaniyati termini berilmagan bo'lsa-da, ammo nutq madaniyati terminining mohiyati to'g'ri va aniq ochib berilgan. Lug'atda bu terminga quyidagicha tavsif berilgan: "Nutq madaniyati. Aynan madaniy

nutq. Madaniy nutq (nutq madaniyati) inglizcha culture of speech, speech culture. Tilning orfoepiya, so'z qo'llash va boshqa meyorlarga muvofiqlik darajasi; insonning o'z individual nutqida eng maqbul namunalarga rioya qilish qobiliyatidir" [2:374].

Rus tilshunosligidagi lingvistik terminlar va tushunchalar izohi berilgan ensiklopedik lug'at-ma'lumotnomada ham til madaniyati termini uchramaydi. Nutq madaniyati terminining madaniy nutq termini bilan bir tushunchani anglatishi qayd etilgan holda unga quyidagicha izoh berilgan: "Nutq madaniyati. 1. Nutqiy muloqotning muayyan vaziyatida ifoda maqsadini inobatga olgan holda tinglovchi (o'quvchi)ga yaxshiroq, yoqimliroq ta'sir ko'rsatadigan hamda orfoepiya, so'z qo'llash va til funkcionallashuvining ushbu tarixiy davridagi boshqa meyorlariga muvofiq keladigan til vositalari va ularga xos sifatlar majmuidir. Nutq madaniyati nutqning boyligi, rang-barangligi, ifodaliligi, tushunariligi, hammaga imkoniyatliligi, aniqligi va to'g'riligi bilan ajralib turadi. 2. O'z nutqida eng maqbul namunalarga rioya qilish qobiliyati.

Ko'rinadiki, nutq madaniyati terminiga berilgan ushbu izoh O.S.Axmanovanning lug'atida berilgan izoh bilan hamohang.

N.Mahmudov ham til madaniyati va nutq madaniyati terminlarining ba'zan farqlanmayotganligi masalasiga munosabat bildirar ekan, ularning turli tushunchalarni anglatishi xususida quyidagicha mulohaza bildiradi: "... til madaniyati tilning "madaniylashganlik", adabiylashganlik, normalashganlik darajasini, lug'at tarkibi, grammatik, semantik, stilistik jihatlardan rivojlanganlik, boylik darajasini, potensial ifoda imkoniyatlarining ko'lamdorligini ifoda etadi." [10:21]. Olimning fikricha, "Nutq madaniyati esa tildan bemalol, maqsadga o'ta muvofiq va ta'sirchan bir tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir. Boshqacha aytganda, nutq madaniyati tilda potensial mavjud bo'lgan xilma-xil ifoda shakllaridan fikr uchun eng uyg'unlarini tanlay bilish va shu asosda paco nutq tuza olish mahoratidir." [10:21].

O'zbek tilshunosligida til madaniyati va nutq madaniyati tushunchalarini bir-biridan farqlashga intilish boshqa ishlarda ham kuzatiladi. Jumladan, Y.Tojiyev, M.Mallaboyev tomonidan yozilgan "O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari" kitobida bu ikki termin til va nutq dixotomiyasi

asosida bir-biridan farqlangan [13:46]. Biz ham bu ikki terminning qo'llanishidagi farqli jihatlarni inobatga olgan holda ayta olamizki, til madaniyati tilning madaniylik aspektini qamrab olsa, nutq madaniyati muloqot jarayonida madaniy tildan to'g'ri, maqsadga muvofiq, o'rinli holda foydalanish masalasi bilan shug'ullanuvchi nutq aspektiga aloqadordir.

Ayrim lug'at va ensiklopediyalarda nutq madaniyati terminining tilshunoslikning muayyan sohasi, bo'limiga nisbatan qo'llanilishi masalasiga ham etibor qaratilgan. Jumladan, D.E.Rozental boshchiligidagi mualliflar tomonidan tuzilgan lingvistik terminlar izohli lug'atida nutq madaniyati termini "muayyan davrdagi jamiyatning nutqiy hayotini o'rganuvchi va insonlar fikrini shakllantiruvchi va ifoda etuvchi qurol hamda asosiy muloqot vositasi sifatida tildan foydalanish qoidalarini ilmiy asosda belgilovchi filologiya fani bo'limi" hamda "nutqning meyoriyligi, uning ma'lum bir tarixiy davrda til jamoasi tomonidan tilga qo'yiladigan talablarga muvofiqligi, talaffuz meyorlariga, urg'u, so'z qo'llash, shakl yasalishi, so'z birikmalari va gap qurilishi meyorlariga rioya qilinishi" tushunchasini anglatishi qayd etiladi [12:41].

"Russkiy yozik. Ensiklopediya" kitobida ham nutq madaniyati termini tilshunoslikning alohida sohasiga nisbatan qo'llanilishi qayd etilgan. Ushbu ensiklopediyada yozilishicha, nutq madaniyati uch tarkibiy komponentlarni qamrab oladi: normativ, etik va kommunikativ [11:204]. Til madaniyati va nutq madaniyati terminlariga berilgan ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, ushbu terminlar mazmun mohiyatiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Shuni xarakterliki, til madaniyati termini o'tgan asrning o'rtalarida "til va yozuvni takomillashtirish, tilning soffligi uchun kurashish"ga nisbatan ham qo'llanildi. Jumladan, jadidlarning o'zbek tilining imlo qoidalar va alifbosini takomillashtirish, tilning soffligi, unga xorij so'zlarining o'zlashtirilishi masalasi yo'lidagi xatti-harakatlari – til madaniyati uchun kurashdan iboratdir. Bunda til madaniyati jamiyatning tilga bo'lgan munosabati sifatida baholanib, tegishli mezonlar bilan belgilanadi.

Aniqroq aytganda, bu o'rinda til madaniyati tushunchasi u yoki bu tilda so'zlashuvchi xalqning o'z tiliga munosabati, ya'ni tilini hurmat qilishi, tiliga muhabbati kabi holatlar bilan belgilanadi. Tilning takomillashuvi esa

adabiy tilning sofflik mezonlari asosida to'g'ri va mukammal belgilanishida namoyon bo'ladi. Til madaniyatining rivojlanishi xalq madaniylik darajasining yuksalishiga ta'sir ko'rsatadi. Demak, jamiyatda til madaniyati taraqqiy etmagan bo'lsa, nutq madaniyati ham shakllanmaydi.

Tilning madaniylik darajasi nutq jarayonida ochiq ko'rinadi. Nutqda, uning og'zaki yoki yozma shakllarida muloqot uchun yaroqli bo'lgan til yanada madaniylashadi, sayqal topadi. Bu holat til madaniyati va nutq madaniyati tushunchalarining aslida bir-birini taqozo etuvchi hodisalarni anglatishini ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida nutq madaniyati masalalari tahliliga bag'ishlangan ayrim ishlarda til madaniyati termini o'rinda madaniy til terminining qo'llanilishi kuzatiladi. Muloqot qiluvchilarning tildan foydalanishdagi ehtiyojlarini qondiruvchi, nutq tuzish uchun tayyor holatda turgan; xalq qiziqishlari, madaniy qarashlariga to'la javob bera oluvchi har qanday til shu jamoa uchun madaniy tildir. Tilni takomillashtirish tarixidagi kurashlar zahirida madaniy tilni yaratish masalasi yotganligi bois til madaniyati, madaniy til terminlari ekvivalent sifatida ishlatilayotganligi ma'lum. Variantdorlik muloqot odobi, muomala odobi, so'zlashish odobi, suhbatlashish odobi kabi terminlarga ham xos.

Bizningcha, madaniy til termini "ishlov berilgan til" ma'no qirrasini bilan til madaniyati tushunchasini anglatadi. Madaniy nutq esa har jihatdan hammaga ibrat bo'la oladigan namunali nutqdir. Bunday nutq egalarini namunali nutq sohiblari deb atash mumkin. Ular muloqot odobi – nutq madaniyati talablariga amal qilgan holda gapiruvchi shaxslardir. Madaniy nutqqa xos to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, tushunarlilik, jo'yalilik, ixchamlik, ta'sirchanlik kabi xususiyatlar muloqot madaniyati doirasiga kiruvchi sifatlardir.

Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, nutq madaniyati sohasida turli ilmiy tortishuvlariga sabab bo'layotgan masalalardan biri til madaniyati, nutq madaniyati, muloqot odobi terminlarining turlicha talqin etilishi va tizimli tarzda izohlanmaganligidir.

Dunyo tilshunosligida til va nutq madaniyati masalalariga doimo dolzarb muammo sifatida yondashib kelingan. V.V.Veselitskiy qayd etganidek, "hozirda nutq madaniyati bo'yicha tadqiqot olib borishning zarurligini isbotlab o'tirish ortiqchadir" [5:69].

Aytish mumkinki, nutqda yo‘l qo‘yilgan turli xatolik va nuqsonlarni aniqlash va uni bataraf etish masalasi doimo tilshunoslarni qiziqitirib kelgan. Biroq bu ayni masalaning faqat amaliy jihatiga tegishli bo‘lib, mazkur muammoning nazariy asoslarini ishlab chiqish zarur.

Nutq madaniyati deb nomlangan soha tilshunoslik fanida o‘zining qat’iy o‘rnini topishi uchun nazariy jihatdan asoslanishi, uning tekshirish obyekti, predmeti, tegishli muammolari, tadqiq metodlari aniq belgilanishi lozim. Nutq madaniyati masalalari tahliliga bag‘ishlangan ilmiy manbalarda soha muammolarining turlicha belgilanayotganligi, har xil talqin etilayotganligini payqash mumkin. Ayrim tilshunoslar nutq madaniyatini sof nazariy muammo sifatida talqin qilsalar, ba’zilar mazkur sohani uni faqat amaliy masala sifatida qabul qiladilar. Hatto nutq madaniyati masalalari etika, psixologiya yoki pedagogikaga daxldor degan qarashlar ham uchraydi [1:28].

Nutq madaniyati tushunchasining mohiyati va maqsadi haqida tilshunoslik fanida erishilgan yutuqlarni o‘rganish va ilmiy umumlashtirish, o‘z navbatida, uni yanada rivojlantirish asosida aniqlashtirib borish g‘oyat muhimdir. Mazkur muammo yuzasidan turli tilshunoslarning nutq madaniyati sohasining u yoki bu tomoniga oid aytgan ba’zi qarashlari va fikrlari mavjud ekanligini inkor emagan holda nutq madaniyati tushunchasiga berilgan ta’riflarni uchratish mumkin. Ularning barchasi ham bir-biridan o‘ziga xos tomoni bilan farqlanadi. Bunday ta’riflarni umumlashtirish, ilmiy nuqtai nazardan maqsadga muvofiq bo‘lganini tanlash bugungi kunning eng muhim masalalaridan biridir. XI asrga qadar tilshunoslikda nutq madaniyatini atrofficha, keng nazariy hamda amaliy tarzda isbotlab va tavsiflab beruvchi monografik tadqiqotlar yuzaga keldi, nutq madaniyati tushunchasi, uning lingvistik soha sifatidagi xususiyati turli bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Bu haqda quyidagi adabiyotlarni eslab o‘tish mumkin [3:121].

O‘zbek tilshunosligida E.Begmatov, R.Qo‘ng‘urov, Y.Tojiyev hamda N.Mahmudovning bu sohaga oid asarlari, qarashlari uni hozirgi davr talablarida o‘rganish lozimligini ko‘rsatib turibdi. Jumladan, o‘zbek tilshunosligida nutq madaniyati muammolarini o‘rganish ilmiy asosga qo‘yilgan bo‘lib, ilmiy tekshirish institutlari qoshida maxsus sektor yoki bo‘limlar tashkil etilgan.

Shuningdek, nutq madaniyati masalalariga oid bilimlar oliy o‘quv yurtlarida ham maxsus kurs sifatida o‘qitilishi natijasida ushbu masalaga ilmiy yondashish va uni o‘rganish nazariy jihatdan ham ancha mustahkamlandi. Ushbu harakatlar natijasida nutq madaniyati masalasi hozirgi kunda nafaqat ilmiy doirada, balki umumxalq mulkiga, keng xalq ommasini qiziqitiruvchi sohaga aylanib ulgurdi desak ham bo‘ladi. Shuningdek, nutq madaniyati tushunchasi va uning ilmiy asoslarini ishlash va targ‘ibot qilish ishonchli hamda qoniqarli vositalar orqali olib borilmoqda.

XULOSA

Bir qator olimlar ta’kidlaganlaridek, nutq madaniyati masalasiga qandaydir ilmiy-ommabop tadbir tusini berish, unga shunchaki havasmandlik va qandaydir tuyg‘ular kuchi bilangina yondashish, bu masalada o‘git-nasihat, va’zxonlikka berilib ketish kabilar masalani bir yoqlama tushunishdir. Nutq madaniyatini egallash, madaniy gapirishga intilish barchaning, ya’ni keng xalq ommasining ishi bo‘lishi lozim. Ammo nutq madaniyati masalalarini ilmiy talqin etish, tushuntirish barchaning ishi bo‘lishi shart emas.

Nutq madaniyati g‘oyat murakkab lingvistik hamda millat ma’naviyatiga aloqador tushuncha bo‘lib, bu masalaga doir har qanday mulohazalar chuqur ilmiy asoslangan bo‘lishi kerak. Chunki manbalarda yozilishicha, o‘tmishda ajdodlarimiz nutq odobi va madaniyatini egallash masalasini komil insonni shakllantirish jarayonlariga aloqador tarzda talqin etganlar. Shundagina u ma’lum kutilgan samarani berishi, naf keltirishi mumkin.

Komil insonni shakllantirish masalasi juda qadimiy muammodir. “Avesto” asarida, “Qur’oni Karim”da, “Hadis”larda, “Qobusnoma”da, “Qutadg‘u bilig”da, “Hibatul-haqoyiq”, “Hikmatlar” (Yassaviy), “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarda komil inson, uning asosiy belgilaridan bo‘lgan tilga munosabat, uni sevish, undan maqsadga muvofiq, odob doirasida, yana tinglovchilarga ta’sir etishni ko‘zda tutib foydalana olish mahoratiga ega bo‘lishlik haqida mukammal fikrlar bayon etilgan. Professor S.Ibrohimov ta’kidlaganidek: “Har bir kishining madaniylik darajasi, o‘qib qanchalik tarbiya ko‘rganligi uning yozma va og‘zaki nutqidan bilinadi. Nutq madaniyati juda keng tushuncha. U, eng avvalo, til madaniyatiga amal qilish. Nutq meyorlari asosida

to'g'ri, o'rinli, tushunarli bir tarzda gapirish va yozish, bu bilan birga nutq estetikasiga rioya etib xushsuhan bo'lish, silliq, yoqimli gapirishdan iboratdir" [7:124].

Ko'rinadiki, komil insonning eng asosiy belgisi, avvalo, uning madaniy nutqidir. Bu sohaga shunga ko'ra: birinchidan, axloqshunoslik bilan etika bilan, boshqacha aytganda, pedagogika bilan aloqador holatda, qadimdan jiddiy munosabatda bo'lingan. Biroq u "nutq madaniyati", deb atalmagan, xolos. Bu haqda kuyiroqda batafsil to'xtalamiz.

Demak, nutq madaniyatiga oid tadbir va anjumanlarning ilmiy asoslarga tayangan holda tashkil etilishi nutq madaniyati sohasida olib boriluvchi amaliy ishlarning maqsadga muvofiq va foydali bo'lishiga olib keladi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аъламова М. Нуткда акс этар бир олам бойлик. – Тошкент, 2009-Б. 240.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Издательство "Советская энциклопедия", 1966. – С. 374.
3. Бегматов Э. Нутқ маданияти тушунчаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1975. - № 5. – Б. 50-58.
4. Будагов Р.А. Культура языка – наша общая большая работа // Русская речь. – 1982. – №2; Виноградов В.В. О Культуре русской речи // Русская речь. 1970. – №3.
5. Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 55.
6. Веселитский В.В. О некоторых понятиях правильной речи / Сб. «Вопросы культуры речи». – М., 1961. – №6. – С. 69.
7. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Издание 5-е. – Назрань: Издательство ООО "Пилигрим". 2010. – С. 169.
8. Иброҳимов И. Адабий талаффуз маданияти. – Тошкент, 1972. – Б. 150
9. Иброҳимов С. Тилга эътибор – элга эътибор. – Тошкент, 1972. – Б. 184.
10. Иброҳимов С. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳақида. – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 4-5.
11. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 21.
12. Русский язык. Энциклопедия (Главный редактор Ю.Н.Караулов). – М.:Научное изд. Большая Российская энциклопедия. Издательский дом "Дрофа", 1997. – С. 129.
13. Розенталь Д.Э. и др. Словарь лингвистических терминов / <https://www.gumer.info/bibliotek/Buks/Linguist/DicTermin/j.php>
14. Тожиев Ё., Маллабоев М. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. – Тошкент, 2006. – Б. 121.
15. Турабаева Л.К., Курбанов А.Г., Каирбекова У.Ж., Укибасова К.А. Формирование языковой культуры и языковая норма // Международный журнал экспериментального образования. – 2016. – № 6-2. – С. 244-246. URL: <https://expeducation.ru/ru/article/view?id=10228>.
16. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи.// Халқ сўзи. – 2019 йил, 22 октябрь.
17. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 9.
18. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. J.26:– Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 556 b. – (Adabiyot xrestomatiyasi).
19. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig / F.Ravshanov tabdili. – Toshkent, 2015.